

## MARKAZIY OSIYODA ENERGETIKA SOHASIDAGI NIZOLARNI HAL QILISHDA ARBITRAJNING O'RNI

Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro arbitraj va nizolarni hal  
qilish mutaxassisligi magistranti,  
Berdibayev Sardor Yerkaboy o'g'li  
e-mail: [berdiboyevs@gmail.com](mailto:berdiboyevs@gmail.com)

**Abstract:** This article presents important issues and proposals on the importance of arbitration institutions in resolving disputes arising in the energy sector, i.e., disputes arising between states, contractual and non-contractual disputes in the countries of Central Asia such as Uzbekistan, Kazakhstan, Turkmenistan, Tajikistan, and Kyrgyzstan, as well as their importance in resolving disputes.

**Keywords:** ADR, Arbitration, Energy sector, Central Asia, dispute resolution, Specialized arbitration institutions

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Markaziy Osiyo davlatlari hisoblanuvchi O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlarida energetika sohasida kelib chiquvchi nizolarni, ya'ni, davlatlar o'rtasida kelib chiquvchi nizolar, shartnomaviy hamda noshartnomaviy nizolarni hal qilishda arbitraj institutlari hamda nizolarni hal qilishda ahamiyati to'g'risida muhim masalalar va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ADR, Arbitraj, Energetika sektori, Markaziy Osiyo, nizolarni hal qilish, Ixtisoslashgan arbitraj institutlari

**Аннотация:** В данной статье представлены важные вопросы и предложения об арбитражных институтах при разрешении споров в энергетической сфере, то есть споров, возникающих между государствами, договорных и недоговорных споров, а также их важности при разрешении споров в странах Центральной Азии - Узбекистане, Казахстане, Туркменистане, Таджикистане и Кыргызстане.

**Ключевые слова:** АУС, Арбитраж, Энергетический сектор, Центральная Азия, разрешение споров, специализированные арбитражные учреждения



**Kirish.** Qadimdan hammaga ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlarining strategik joylashuvi boshqa mintaqalarga nisbatan energiya resurslariga, ya'ni neft va gaz, elektr energiya, atom energiyasiga boy joylashuvda joylashganligi, hamda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida energetika sohasida o'zaro hamkorlik ham juda rivojlangan hisoblanadi. Shu bilan birga, qo'shni davlatlar Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Yevropa Ittifoqi davlatlari tomonidan energiya resurslariga bo'lgan qiziqish paydo bo'lgan. Har bir sohada nizolar vujudga kelar ekan, Nizolarni hal qilishda butunjahon tan olgan ADR ya'ni "Alternative Dispute Resolution" o'zbek tiliga tarjima qilganda "Nizolarni hal qilishning muqobil usullari" tushuniladi. Alternative Dispute Resolutionning asosiy tarkibiga Concillation (Muhokama), Mediation (Mediatsiya) va Arbitration (Arbitraj) kabi usullar kiradi.

Shu ta'kidlab o'tish joizki, Institutsional arbitrajlar aynan ixtisoslashgan bir soha bo'yicha o'z ustida ishlab rivojlanib kelmoqda. Shu bilan birga, tijorat arbitrajlarini hal qilishda boshqa turdagi nizolarni hal qilish uchun ixtisoslashib borayotgani hammaga ma'lum. Bunga misol qilib, Investitsiya sohasidagi nizolar, Intellektual mulkka oid nizolar, Axborot texnologiyalariga oid nizolar va shu bilan birga energetika sohasidagi nizolarni hal qilishga ixtisoslashib bormoqda<sup>1</sup>.

Energetika sohasida kelib chiquvchi nizolar asosan shartnomada uchraydigan bundan tashqari investitsiyada kelib chiqadigan nizolarning mavjudligi bu achinarli holat hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, Davlatlar o'rtasida hali hanuz to'liqligicha ijtimoiy, iqtisodiy, shartnomaviy-huquqiy va siyosiy munosabatlar to'liq shakllanmaganligi sababli nizolar vujudga kelib bormoqda. Nizolarni hal qilishda esa bugungi kunda barcha davlatlarda ADRning barcha shakllari sudgacha bo'lgan muddatda nizolarni hal qilishda asosiy ro'l o'ynamoqda.

**Metodologiya.** Markaziy Osiyoda energetika sohasidagi nizolarni o'rganish maqsadida, ushbu tadqiqot ishida bir necha turdagi uslublardan qo'llaniladi. Birinchi navbatda, mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, bundan tashqari, xalqaro miqyosdagi hujjatlar, shu bilan birga, yuqorida keltirilib o'tilganidek, ixtisoslashtirilgan arbitraj institutlarining reglamentlarini o'rganish, bu ilmiy tadqiqotga kirishda hamda uni kelajakda chuqurroq o'rganishda va tadqiq qilishda asosiy poydevor hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Рустамбеков И.Р. Международный коммерческий арбитраж. Учебное пособие. – Ташкент, 2018. 21-стр.

Bundan tashqari, Energetika sohasida yuzaga kelayotgan nizolarni o‘rganish maqsadida ICSID (International Centre for Settlement of Investment Disputes)<sup>2</sup> va SCC (Stockholm Chamber of Commerce)<sup>3</sup> orqali ko‘rilgan, energetika sohasiga taalluqli bo‘lgan nizolarni ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi.

Bunga qo‘shimcha qilib esa, Markaziy Osiyoda energetika sohasida yuzaga kelayotgan nizolarni vujudga kelish sabablarining yechimini xalqaro huquqiy hujjatlar bilan qiyosiy tahlil qilish bilan o‘rganildi.

**Natija.** Bugungi kunga kelib, nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri hisoblanuvchi arbitrajda nizolarni ko‘rib chiqishning yirik qismini energetika sohasidagi nizolarni ko‘rish bilan tashkil topadi. Bunga qo‘shimcha qilib esa, ayniqsa Markaziy Osiyoda bu nizolarning ortishi natijasida ICSID va SCC larda energetika sohasidagi nizolarni ko‘rish keskin oshdi. Bunga misol qilib esa, ICSID 2024-yilgi statistikasiga ko‘ra, 2023-yilda 57 ta nizo ro‘yxatga olingan bo‘lsa, deyarlik 20% ro‘yxatga olingan nizolar aynan energetika sohasiga tegishligini keltirib o‘tgan. 1972-yildan beri ro‘yxatga olinib kelinayotgan nizolarning esa 17 foizini energetika sohasidagi nizolar qamrab olgan<sup>4</sup>.

Biroq, ulardan eng ko‘zga ko‘rinarli va yirik ahamiyatga ega bo‘lgan nizolarga esa, Karachaganak Petroleum Operating hamda Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi nizoning arbitraj usulida hal qilinganligi, Markaziy Osiyo davlatlarida arbitraj institutini rivojlantirishga bo‘lgan harakatlar vujudga keldi.

Bundan tashqari, Turkmaniston va Rossiyaning Gazpromi o‘rtasidagi nizo ham SCC huzuridagi Arbitraj markazida aynan energetika sohasidagi nizolarni hal qilishga ixtisoslashgan markazi tomonidan ko‘rilishi ishni adolatli, tez va maxfiylikni saqlagan holda amalga oshirganligi taqsimga sazovordir.

SCC tomonidan taqdim etilgan yillik statistikaga ko‘ra esa, jami 175 ta nizo ro‘yxatga olingan bo‘lsa, ularning 97 tasi (55 foizi) xalqaro nizolar hisoblanib, 35tasi aynan biznes va investitsiya masalalari bo‘yicha ko‘rilgan nizolar qatoriga qo‘shib qo‘yilgan<sup>5</sup>

<sup>2</sup> <https://icsid.worldbank.org/>

<sup>3</sup> <https://stockholmshandelskammare.se/>

<sup>4</sup> [https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/publications/ENG\\_The\\_ICSID\\_Caseload\\_Statistics\\_Issue%202024.pdf](https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/publications/ENG_The_ICSID_Caseload_Statistics_Issue%202024.pdf)

<sup>5</sup> <https://sccarbitrationinstitute.se/en/statistics-2023>



Yuqorida keltirib oʻtilgan statistikalar hamda nizolarga koʻra, shuni aytishimiz mumkinki, deyarlik energetika sohasidagi nizolarning barchasi davlatlar va davlatlar yoki investorlar oʻrtasida kelib chiquvchi nizolar deb hisoblasak boʻladi.

Bundan tashqari, qaysi yurisdiksiya bilan nizolarni hal qilinmasin, arbitrajning asosiy tamoyillaridan biri boʻlgan – maxfiylik prinsipiga amal qilishiga rahna soluvchi yoki umuman amal qilinmasdan qolish ehtimollari ham yoʻq emas. UNCITRAL<sup>6</sup> qoidalariga koʻra, Arbitrajning shaffofligini taʼminlashda yuzaga keladigan bir qancha muammolar ham koʻzga tashlanmoqda.

Qoʻshimcha qilib shuni aytib oʻtish joizki, davlatlar oʻrtasida arbitraj institutini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda, 2016-yilda Qozogʻiston Respublikasida, keyinchalik 2018-yilda Oʻzbekiston Respublikasida “Xalqaro tijorat arbitraji toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilindi<sup>7</sup>. Shu bilan birga, tijorat va sport masalalari boʻyicha nizolarni hal qilishda Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzurida TIAC – Tashkent International Arbitration Centre tuzildi.

**Muhokama.** Yuqorida keltirib oʻtilgan masalalarga toʻxtalib, quyidagi muhimi va ahamiyatli jihatlarga eʼtibor qaratishimiz lozim:

Xalqaro miqyosdagi nizolarni hal qilishda, qadimdan shakllanib SCC, ICSID, SIAC, LCIA, AAA (ICDR) kabi mashhur yoki aynan biror soha boʻyicha ixtisoslashgan ICEA (International Centre for Energy Arbitration), PCERA (Perth Centre for Energy & Resources Arbitration) kabi alohida xususiyatga ega boʻlishi, nizolarni koʻrishda katta ahamiyat kasb etadi<sup>8</sup>. Bundan kelib chiqib, shuni qoʻshimcha qilish mumkinki, Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlari investitsiyalar kiritish uchun eng qulay davlatlar deb topilganligi sababli, investitsiya kiritilayotgan sohada nizo kelib chiqqan taqdirda, ularni hal qilish hamda investorlarning ham huquqlarini himoya qilishda sudgacha boʻlgan muqobil nizolarni hal qilish institutining Markaziy Osiyoda shaffofligi, adolatligi va maxfiylikni saqlagan holda amalga oshirishi juda muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, nafaqat investorlar balki kichik tadbirkorlar oʻrtasida kelib chiquvchi nizolarni hal qilishda institutlarning ixtisoslashuvi, bugungi kunda,

<sup>6</sup> [https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/21-07996\\_expedited-arbitration-e-book.pdf](https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/21-07996_expedited-arbitration-e-book.pdf)

<sup>7</sup> <https://lex.uz/docs/-5294106>

<sup>8</sup> Маргарет Л.Мозес. Халқаро тижорат арбитражи тамойиллари ва амалиёти. Учинчи нашр./Т.:Lesson Press,- 37 бет



mintaqaviy institutlarni xalqaro miqyosda tan olinishi, bu Markaziy Osiyo davlatlari uchun dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi kunda esa, mintaqaviy institutlarning barcha sohalarga ixtisoslashuvi esa, shu bilan birga energetika sohasida, nizolarni hal qilishda kichik energiya kompaniyalari va investorlarga qulay sharoitni yaratib beradi.

**XULOSA.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlarida energetika sohasidagi nizolarni hal qilishda, ayniqsa, murakkab shartnomaviy nizolarni va tijorat masalalarini hal qilishda, adaptiv va samarali mexanizmlardan biri bu – Arbitraj. Biroq, shunga qaramay, Markaziy Osiyo davlatlarida arbitraj qarorlarining ijrosi, ularning maxfiyligi yoki shaffofligi yuzasidan bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, mintaqaviy arbitraj markazlarining shakllanishi, ixtisoslashuvi esa energetika sohasidagi nizolarni hal qilishda, nafaqat energetika barcha sohadagi nizolarni hal qilishda barqaror mexanizmni yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yuqoridagi ko'rib chiqilgan masalalar va xalqaro va mahalliy normative huquqiy hujjatlar, bundan tashqari, arbitrajlar markazlarining reglamentlarini umumlashtirib quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin.

**Birinchi navbatda,** Markaziy Osiyo davlatlarida aynan energetika sohasidagi nizolarni hal qilishda, arbitraj markazlarini ixtisoslashtirish ya'ni Markaziy Osiyo davlatlariga kirib kelayotgan investorlar yoki mahalliy kichik kompaniyalar, shu bilan birga davlatlararo energetika sohasidagi nizolarni hal qilishda Energetika sohasidagi nizolar bo'yicha arbitraj markazini tashkil etish. Bunda, xalqaro investorlarning aynan Markaziy Osiyodagi qonunchiliklarni tushunishida va bilishida, bundan tashqari, nizolarni hal qilishda arbitrajning ahamiyatini, shu bilan birga, Markaziy Osiyoda energetika nizolarni hal qilishda ixtisoslashtirilgan arbitraj markazlarini bo'lishi zarurdir.

**Ikkinchidan,** Markaziy Osiyo davlatlarida mavjud bo'lgan xalqaro arbitraj markazlarini o'zaro hamkorligini kuchaytirish, nafaqat Markaziy Osiyo davlatlaridagi balki, boshqa rivojlangan uzoq tarixga ega bo'lgan arbitrajlar markazlari bilan xalqaro hamkorlikni tashkil etish hamda faoliyat ko'rsatish kabi masalalarni ko'rib chiqishi kerak. Bunga sabab esa, Mahalliy rivojlanishda muhim kasb etadigan va katta ahamiyatga ega bo'lgan metodlardan biri bu xalqaro hamkorlik va xalqaro tajribalarni o'rganish hisoblanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlarida Energetika sohasidagi nizolarni hal qilishda arbitrajlarining o'ri juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan takliflardan kelib chiqib, xalqaro va mahalliy hamkorliklarni rivojlantirib, arbitraj markazlarining aynan sohalar bo'yicha ixtisoslashishi natijasida, kelajakda nizolarni hal qilishda tez va mukammal bo'lishi ta'minlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi “Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida”gi qonuni
2. Рустамбеков И.Р. Международный коммерческий арбитраж. Учебное пособие. – Ташкент, 2018.
3. Маргарет Л.Мозес. Халқаро тижорат арбитражи тамойиллари ва амалиёти. Учинчи нашр./Т.:Lesson Press,- 504 бет
4. <https://sccarbitrationinstitute.se/en/statistics-2023>
5. [https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/mediadocuments/uncitral/en/21-07996\\_expedited-arbitration-e-book.pdf](https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/mediadocuments/uncitral/en/21-07996_expedited-arbitration-e-book.pdf)
6. <https://lex.uz/docs/-5294106>
7. <https://icsid.worldbank.org/>
8. <https://stockholmshandelskammare.se/>
9. [https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/publications/ENG\\_The\\_ICSI\\_D\\_Caseload\\_Statistics\\_Issue%202024.pdf](https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/publications/ENG_The_ICSI_D_Caseload_Statistics_Issue%202024.pdf)
10. <https://www.tiac.uz/>

Research Science and  
Innovation House

